

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

RIVOJLANGAN MAMLAKATLARNING VA O'ZBEKISTONNING YALPI ICHKI MAHSULOTIDA SEKTORLARNING ULUSHI HAMDA MAMLAKATIMIZ MOLIYAVIY TIZIMI

Turopova Nigora Xolmurod qizi

Termiz Davlat Universiteti

nturopova@tersu.uz

Panjiyev Elmurod Bobir o'g'li

Termiz Davlat Universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bir qancha rivojlangan mamlakatlar hamda mamlakatimizning yalpi ichki mahsulotida tarmoqlarning ulushi qnchaligini va ularning tarkibini shuningdek O'zbekistonning moliya tizimi haqida va uning tuzulishini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar. YAIM, tarmoq, inflatsiya, moliya, sanoat, ishlab chiqarish, aholi salohiyati.

Annotation. In this article, we will consider the share of sectors in the gross domestic product of several developed countries and our country and their composition, as well as the financial system of Uzbekistan and its structure.

Key words. GDP, sector, inflation, finance, industry, production, population potential.

Kirish. Yalpi ichki mahsulot (YaIM) - barcha yakuniy mahsulotlarning umumiy moliyaviy yoki bozor qiymati va tovarlar odatda bir yil bo'lgan ma'lum bir vaqt oralig'ida mamlakat chegaralarida ishlab chiqariladi. Bu mamlakatning iqtisodiy holatini to'liq baholash bo'lib xizmat qiladi, chunki u butun mahalliy ishlab chiqarishning keng o'lchovidir.

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) qisqacha:

- ✓ Yalpi ichki mahsulot (YaIM) har yili mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy hajmini o'lchaydi.
- ✓ YaIMni har xil yondashuvlar, masalan, xarajatlar yoki daromad usullari orqali tahlil qilish mumkin.
- ✓ YaIM moliyaviy bozorlarga ikkilik opsiyonlar, foiz stavkalari, valyuta juftliklari va fond indekslariga ta'sir qiladi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) haqida tushuncha

Mamlakatning yalpi ichki mahsuloti barcha davlat va xususiy xarajatlar, davlat xarajatlari, investitsiyalar, xususiy aksiyalarning ko'payishi va tashqi savdo balanslarida faktoring yo'li bilan hisoblanadi. Eksport miqdori import qiymatidan minus qiymatga qo'shiladi.

YaIMning eng katta foizi iste'mol deb ataladigan iste'mol xarajatlaridan iborat. U bir necha avlodlar uchun o'rtacha 65 va 70 foizni tashkil etdi va YaIMga sezilarli hissa qo'shmoqda. Yuqorida aytib o'tilganidek, investitsiyalar YaIMning muhim tarkibiy qismidir. Bunga oddiy xarajatlar, zavod qurilishi xarajatlari va biznes zaxiralarining qo'shilishi yoki kamayishi kiradi.

Yalpi ichki mahsulot tushunchasini keng ko'lamda tavsiflash mumkin. Tahlilchilar buni har bir rezidentga tayinlanishi mumkin bo'lgan o'rtacha individual iqtisodiy mahsulotni hisoblash uchun YaIM statistikasidan foydalanish orqali tushuntiradilar.

Yalpi milliy mahsulot (YaMM) va yalpi milliy daromad (YaMM)

Yalpi milliy mahsulot (YaMM) va yalpi milliy daromad (YaMM) bir-biriga bog'liq ikkita moliyaviy ko'rsatkichdir. YaIM - bu mamlakat aholisining qaerda yashashidan qat'i nazar, ishlab chiqaradigan barcha tayyor mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. YaIM - bu mamlakat YaIM va sof xorijiy daromadlarning umumiy miqdori.¹

AQSh iqtisodiyoti — o'ta yuqori darajadagi rivojlangan aralash iqtisodiyot. Amerika Qo'shma Shtatlari dunyodagi eng katta nominal YaIMga hamda juda katta iqtisodiy boyliklarga egalik qilib, hozirda dunyo mamlakatlarining xarid qobiliyati pariteti (XQP) bo'yicha hisoblangan yalpi ichki mahsuloti bo'yicha Xitoydan keyingi 2- o'rinni egallab turibdi. Mamlakat yaqin vaqtlarga qadar jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM (nominal) bo'yicha dunyoda 8- o'rinni egallab turgan, ammo 2022-yil holatiga ko'ra, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM bo'yicha to'qqizinchi o'rinni qayd etdi. AQShning 2022-yildagi nominal YaIM hajmi jahon iqtisodiyotining 25,4 foizini, XQP bo'yicha YaIM hajmi esa taxminan 15,6 foizini tashkil etdi. Qo'shma Shtatlar dunyodagi eng taraqqiy etgan texnologik va innovatsion iqtisodiyotga ega mamlakatlardan biri sanaladi. AQSh firmalari texnologik yutuqlarda, ayniqsa, sun'iy intellekt, kompyuter, farmatsevtika, tibbiyot, aerokosmika va harbiy texnika sohalarida yetakchi o'rinlarni band etib turibdi.

¹ <https://www.binaryoptions.com/uz/lugat/yalpi-ichki-mahsulot/>

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

AQSH dollari xalqaro savdoda eng keng qo'llaniladigan yetakchi valyuta bo'lib, u mamlakat iqtisodiyoti, barqaror hukumati, armiyasi hamda neft-dollar tizimiga mos standart valyuta sifatida qo'llanilishi sabab dunyo bo'ylab keng tarqalgan, shuningdek, yevrodollar AQShning ulkan tashqi bozori bilan bog'liq bo'lgan dunyodagi eng yirik zaxira valyutasi sanaladi. Ba'zi mamlakatlarda dollar rasmiy valyuta sifatida qabul qilingan. Boshqa mamlakatlarda esa asosiy to'lov valyutasi sifatida foydalanib kelinadi. AQShning eng yirik savdo hamkorlari Xitoy, Yevropa Ittifoqi, Kanada, Meksika, Hindiston, Yaponiya, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya va Tayvandır. Qo'shma Shtatlar dunyodagi eng yirik import qiluvchi davlat bo'lishi bilan birgalikda eksport borasida ikkinchi o'rinda turuvchi davlat hamdir.²

Birlashgan Qirollik — iqtisodiy jihatdan rivojlangan yirik sanoatlashgan mamlakat. Yalpi ichki mahsulotning 21 % ni sanoat, 1,8 % ni qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 70,2 % ni xizmat ko'rsatish tarmog'i beradi. 1 va 2-jahon urushlari orasida bir qancha sanoat tarmoqlari, xususan harbiy industriya bilan bog'langan kimyo, elektrotexnika va avtomobil sanoati bir kadar taraqqiy etdi. Ikkinchi jahon urushida Angliya iqtisodiyotiga katta putur yetdi: mamlakat milliy boyliklarining 1/4 qismi qo'ldan ketdi; sanoat ishlab chiqarish urushdan avvalgi darajadan 25 % kamaydi, chet ellardagi kapitalining qariyb 1/4 qismini qo'ldan boy berishga yoki sotishga majbur bo'ddi. Iqtisodiyotning harbiy izga tushirilishi ko'pdanko'p behuda harajatlarni keltirib chiqardi. Jahon sanoat ishlab chiqarishida 1948-yilda Birlashgan Qirollik ulushi 11,9 % edi, 1968-yilda 7,4 % ga tushib qoldi.³

Germaniya – dunyoning iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan davlatlardan biri. Yalpi ichki mahsulotning 70% xizmat ko'rsatish sohasiga to'g'ri keladi, qolgan 29% esa sanoat va qurilishga to'g'ri keladi. Xizmat ko'rsatish sohasi GFR iqtisodiyotining asosini tashkil qiladi. Hozirgi paytda telekommunikatsiya va axborot tarmoqlari jadal rivojlanib bormoqda. GFRning bank-moliya sektori Yevropa Ittifoqidagi eng qudratli sektordir. Dunyoning eng yirik 50 bankidan 8 tasi Germaniyaga qarashli. ITTKI tizimiga Germaniyaning YIMlarining 2,5% sarflanadi. Xizmat ko'rsatish sohasida ijtimoiy xizmatlarga alohida joy ajratilgan. Ijtimoiy ehtiyojlarga ajratiladigan asosiy mablag'lar nafaqaxo'rlar pensiyasi (xarajatning 1/3 qismi) va ishsizlik bo'yicha nafaqalarga sarflanadi. Germaniya aholini tibbiy yordam muassasalari bilan ta'minlash bo'yicha dunyoda yetakchi

² https://uz.wikipedia.org/wiki/AQSh_iqtisodiyoti

³ https://uz.wikipedia.org/wiki/Birlashgan_Qirollik

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

o'rinni egallagan. Shuningdek, mamlakatda turizm yaxshi rivojlangan. Germaniyada tosh, qo'ng'ir ko'mir (dunyoda 1-o'rin) va kaliy tuzlari qazib olinadi. Olingan tabiiy gaz mamlakat ehtiyojining faqat 1/3 qismini qoplaydi. Germaniyada elektr quvvatini asosan AES (30%) va IES (63%) ishlab chiqaradi. Mamlakatda mashinasozlik sanoati yetakchi o'rinni egallaydi, u sanoatning 1/2 va eksport mahsulotlarining 1/2 qismini tashkil qiladi. Mamlakat dunyoda yengil avtomobillar ishlab chiqarish bo'yicha 3-o'rinda turadi (yiliga 5 mln. dan ortiq). Germaniyada raketa, fuqarolik samolyotlari va harbiy samolyotlar, sun'iy yo'ldoshlar, radarlar, masofaga uzatuvchi asboblari, aviatsiya va raketa dvigatellari ishlab chiqariladi, shuningdek, nazoratolchash apparatlari, tibbiy jihozlar, axborot texnikasi, robototexnika, maishiy texnika, raketasozlik va optik mexanika sanoatlarida ham ishlab chiqarish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Germaniya kimyoviy mahsulotlar eksporti bo'yicha dunyoda 1-o'rinda turadi. Kimyo sanoatida plastmassa, sun'iy tola va kauchuk ishlab chiqarish yaxshi rivojlangan. Bundan tashqari dori-darmon ishlab chiqarish bo'yicha mamlakat dunyoda 2-o'rinda turadi. Mamlakatda matbaachilik juda yaxshi rivojlangan. Germaniya sanoatining eng qadimiy sohalari bo'lmish qora metallurgiya va oziq-ovqat sanoatlari inqirozga yuz tutgan. Pivo va tamaki ishlab chiqarish bo'yicha Germaniya YIda yetakchi o'rinda turadi. Germaniya qishloq xo'jaligida chorvachilik muhim rol o'ynaydi. U qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 2/3 qismini ishlab chiqaradi. Germaniya YIda yirik qoramollar bo'yicha 2-o'rin, cho'chqalar bo'yicha 1-o'rinda turadi. Ekin yerlarining 2/3 qismiga asosan bug'doy, afa, suli va qora bug'doy ekiladi. Germaniyaning janubi g'arbida milliy vinochilik asosi bo'lmish uzumchilik rivojlangan. Germaniya uskunalar, transport vositalari, dori-darmon va tikuvchilik mahsulotlarini eksport qiladi.⁴

Singapur iqtisodiyoti - bu juda rivojlangan davlatning roli yuqori bo'lgan yuqori rivojlangan bozor iqtisodiyotidir. Singapur iqtisodiyoti doimo dunyoda eng ochiq bo'lib, eng kam korupsiya bo'yicha 4-o'rinda turadi va eng ko'p biznesga ega hisoblanadi. Singapur eng past soliq stavkalari va xarid qobiliyati bo'yicha aholi jon boshiga YAİM bo'yicha butun dunyoda yetakchi hisoblanadi. Osiyo tinchlik iqtisodiy tashkilotining bosh qarorgohi Singapurda joylashgan. Singapur savdosining YaİMga nisbati dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir, 2020 yil holatiga ko'ra bu nisbat 320% ni tashkil etdi. Singapur porti yuk tonnaji bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinda turadi va dunyodagi eng gavjum yuk tashish portidir.

⁴ https://uz.wikipedia.org/wiki/Germaniya_iqtisodi_va_xo%27jaligi

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

Singapur iqtisodiyoti nisbatan qisqa vaqt ichida rivojlanayotgan davlatdan rivojlangan, yuqori daromadli iqtisodga tez aylangani uchun ko'pincha "mo'jiza" deb ataladi. Ushbu o'zgarish 20-asrning ikkinchi yarmida Bosh vazir Li Kuan Yu va uning hukumati boshchiligida sodir bo'ldi.

YaIMda sektorlarning ulushi:

Qishloq xo'jaligi-0,5%

Sanoat – 24,8%

Xizmat ko'rsatish – 75,2% (2017y)⁵

O'zbekiston iqtisodiyoti 30 yil mobaynida qanday o'zgardi?

30 yil davomida sobiq Sovet Ittifoqi mamlakatlari YAIMining umumiy hajmi uch barobardan ziyodga o'sdi. 2020 yilda O'zbekiston real YAIM hajmi 1991 yilga nisbatan 3,4 baravarga ko'paydi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAIM ko'rsatkichi 2,9 foizga oshdi. Mamlakat eksporti tarkibida paxta xomashyosi ulushi keskin qisqarib, oltin yetakchi eksport mahsulotiga aylandi. So'nggi 30 yil davomida sobiq Sovet Ittifoqi mamlakatlari yalpi ichki mahsuloti (YAIM) umumiy hajmi uch barobardan ziyodga o'sgan. Bu haqda RBK o'zining mintaqadagi iqtisodiy jarayonlar ustidagi izlanishlari natijalariga asoslanib xabar qildi.

Xususan, 1990 yilda Sovet Ittifoqi iqtisodiyoti hajmi BMT tomonidan o'sha paytdagi narxlarda 791 mlrd dollarga baholangan. 2021 yilda esa sobiq ittifoqning 15 ta respublikasining YAIMlari umumiy hajmi 2,5 trln dollarni tashkil etdi.

Sovet Ittifoqi parchalanishidan oldin uning iqtisodiyoti nominal jihatdan dunyodagi ikkinchi yirik iqtisodiyot hisoblanganligiga qaramay, aksariyat tarixchilar va iqtisodchilar 1960–1980 yillarda Sovet iqtisodiyotining o'sish sur'ati muntazam ravishda pasayib borganligini ta'kidlashgan. BMT hisob-kitoblariga ko'ra, 1990 yilda jahon miqyosidagi YAIMning 4,6 foiz qismi Sovet Ittifoqi hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, hozirda sobiq ittifoq tarkibiga kirgan o'n beshta mamlakat YAIMlarining umumiy hajmi jahon YAIMining qariyb 2,6 foizini tashkil etadi. Ayni paytda, Xalqaro valyuta fondi xarid qobiliyati pariteti (PPP) asosida sobiq Sovet Ittifoqi barcha mamlakatlari YAIMlarining jahon iqtisodiyotidagi ulushini yuqoriroq — 4,7 foiz deb baholaydi.⁶

I. ⁵ World Economic Outlook Database, April 2019". IMF.org. International Monetary Fund. Retrieved 29 September 2019.

⁶ <https://www.gazeta.uz/oz/2021/12/10/uzbekistan/>

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель


Faoliyat jarayonida turli pul fondlardan shakllanadigan va foydalaniladigan moliyaviy munosabatlar turli sohalarining majmui **moliyaviy tizim** deyiladi. Unga boshqacha ham ta'rif berish mumkin: davlat va korxonalarining pul fondlarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish borasidagi shakl va metodlar tizimiga **moliyaviy tizim** deyiladi. Unga yana quyida ta'rifni ham berish mumkin: "Xo'jalik subyektlari, uy xo'jaliklari, davlat va maxsus moliya institutlarining pul mablag'larini taqsimlaydigan va ishlatadigan moliya munosabatlarning bir-biri bilan bog'liq va birgalikda harakat qiladigan kategoriyalari, bo'g'inlari va sohalarining yig'indisi **moliyaviy tizim** deyiladi".

Moliyaviy tizim "davlat moliyasi va mahalliy moliya" sohasining alohida bo'g'ini sifatida davlat byudjeti o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- respublika byudjeti;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar.

O'z navbatida, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti hamda Qoraqalpog'iston Respublikasiga bo'ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetlaridan tarkib topadi. Viloyatning byudjeti esa viloyat byudjetini va viloyatga bo'ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, tumanlarga bo'linadigan shaharning byudjeti shahar byudjeti va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar byudjetlaridan iborat. Va nihoyat, tumanga bo'ysunadigan shaharlari bo'lgan tumanning byudjeti tuman byudjetidan va tuman bo'ysunuvidagi shaharlar byudjetidan tashkil topadi.

1-rasm. Moliyaviy tizimning sohalari va bo'g'inlari



Moliya kategoriyasi ham iqtisodiy, ham tarixiy kategoriya sifatida jamiyatning iqtisodiy munosabatlar tizimi asosiy lokomotiv funksiyani bajarib keladi. Moliya kategoriyasi va munosabatlar o'zagini pul fondlari va ular bilan bog'liq pulli munosabatlar tashkil qiladi. Moliya kategoriyasining tarixiyli shundaki, u davlat faoliyati bilan bog'liq bo'lib, dastlabki davlatchilik shakllari paydo bo'lgandan to hozirgi kunga qadar uzoq davrdagi rivojlanish evolyutsiyasiga ega bo'lib, rivojlanib kelmoqda. Moliyaviy munosabatlarning ilk shakllari insoniyat taraqqiyo-tining quldorlik jamiyati bosqichida jamiyatning sinflarga bo'linishi va davlatning vujudga kelishi bilan bog'liq ravishda paydo bo'ldi. Muayyan hududda boshqaruv organi sifatida davlatning vujudga kelishi uning hokimiyat apparatini moddiy jihatdan ta'minlash, jamoat tartibini saqlash, mamlakatni himoya qilish, urush harakatlarini olib borish, ijtimoiy obyektlar va yo'llar qurish kabi vazifalarni bajarishi uchun ma'lum darajada pul mablag'lari ham bo'lishini taqozo eta boshladi. Xuddi shu holat o'z navbatida jamiyatda moliya paydo bo'lishini iqtisodiy zaruriyatga aylantirdi. Demak, davlatchilik tizimining vujudga kelishi moliyaning paydo bo'lishi uchun asosiy sabab bo'lib xizmat qildi. Moliyaning o'zagini aksariyat

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

iqtisodchilar ta'kidlaganidek, iqtisodiy taqsimot munosabatlar tashkil etishi, u davlat faoliyatining muhim ajralmas funksiyalari sifatida ham amal qila boshladi. Davlat o'z ehtiyojlarini moli-yaviy jihatdan qondirishning asosiy vositasi bu milliy daromadni qayta taqsimlash tashkil eta boshladi(dastlabki davrlarda bunday taqsimot ancha sodda shaklda amalga oshirilgan, hali pul paydo bo'lmagan sharoitda taqsimot munosabatlari ham ham shunga mos holda amalga oshirilib kelingan). Ushbu taqsimot munosabatlari esa davlat miqyosida qandaydir pul fondlarini shakllantirishni taqozo eta boshladi. Ushbu pul fondlari milliy daromadning bir qismini qiymat shaklda ifoda etib, uni taqsimlash jarayoni ham alohida ijtimoiy-iqtisodiy muno-sabatlar tizimi va faoliyatni tashkil etadi. Milliy daromadni qayta taqsimlash o'z-o'zidan amalga oshmaydi, uni taqsimlashning eng optimal usuli esa majburiy to'lovlar-soliqlarni joriy etishga olib keldi. Bu yerda shuni ko'rish mumkinki, davlat o'zining faoliyatni olib borish uchun zarur bo'ladigan moliyaviy mablag'larni ta'minlash(uni jamiyatdan undirish) bilan bir qatorda jamiyatning ikki sohasi: ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasida o'zaro muvozanatni(proportsiyani) ta'minlashning ijtimoiy zarurligi keng qamroqli moliyaviy munosabatlarni keltirib chiqaradi.⁷

Qisqacha xulosa. Mahalliy byudjetlar o'zlarining daromadlari va xarajatlari bilan federatsiya a'zolarining byudjetlariga va ular ham, o'z navbatida, davlat federal byudjetining tarkibiga kirmaydi. Rivojlangan yetakchi xorijiy mamlakatlar moliyaviy tizimning yetakchi bo'g'inlaridan biri davlat byudjetidir. U davlat va o'z-o'zini boshqarish hududiy organlarining funk-tsiyalari va vazifalarini moliyaviy ta'minlashga mo'ljallangan markazlashtirilgan pul mablag'lari fondini shakllantirish va unday foydalanishning shaklidan iboratdir. Davlat byudjeti mamlakatning joriy yildagi asosiy moliyaviy rejasi hisoblanib, qonun kuchiga egadir. U har yili mamlakatning qonunchilik hokimiyat organi – parlament tomonidan tasdiqlanadi. Favqulodda vaziyatlarda (urushlar, iqtisodiy tanazzullar va h.k.lar davrida) hukumat davlat byudjetining mablag'lariga tayanadi va ular yordamida davlat xarajatlarini qoplaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. <https://www.binaryoptions.com/uz/lugat/yalpi-ichki-mahsulot/>
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/AQSh_iqtisodiyoti
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Birlashgan_Qirollik

⁷ Turoпова N. O'zbekiston moliya tizimida mahalliy moliyaning o'ziga xos xususiyatlari. – 2023.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Germaniya_iqtisodi_va_xo%27jaligi
5. World Economic Outlook Database, April 2019". IMF.org. International Monetary Fund. Retrieved 29 September 2019.
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/12/10/uzbekistan/>
7. Туropova N. O 'zbekiston moliya tizimida mahalliy moliyaning o 'ziga xos xususiyatlari. – 2023.
8. Буранова Л. В. и др. Зарубежный опыт ипотечного жилищного кредитования //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 19. – С. 437-345.